

ORONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Abbozov Oxunjon Qayumjonovich***FarDU tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi (PhD)***Abbozova Firuza Bahodirovna***Farg'ona shahridagi 1-son IMI o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Oronimlar – toponimikaning turli xil shakllari nomlarini o'rganadigan bo'limi va onomastik fanlarning kam rivojlangan sohalaridan biridir. Oronimlarning o'rganish aspektlarini tahlil qilish tilshunoslik, tarix, etnografiya va geografiyaning ko'plab masalalarini hal etishda muhim vosita bo'lib, bir qator qimmatli ma'lumotlar va ilmiy dalillarni olish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *oronim, oykonim, toponimika, onomastika, relyef*

Ma'lumki, oronimlar – toponimikaning turli xil shakllari nomlarini o'rganadigan bo'limi va onomastik fanlarning eng kam rivojlangan sohalaridan biridir. Oronimlar bir qator ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- 1) geografik nomlarning xususiyatlari;
 - 2) bir yoki bir necha tilga tegishliligi;
 - 3) oronimlarning semantikasi va etimologiyasi;
 - 4) oronimlarning dialektologiyasi;
 - 5) tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, geologiya fanlari bilan mushtarakligi
- kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan oronimlarning o'rganish aspektlarini tahlil qilish tilshunoslik, tarix, etnografiya va geografiya fanlarining ko'plab masalalarini hal etishda muhim vosita bo'lib, bir qator qimmatli ma'lumotlar va ilmiy dalillarni olish imkonini beradi.

Oronimlarni o'rganishning dolzarbligi, ularning aksariyati hali toponimik, etimologik va boshqa lug'atlarda keng tadqiq etilmaganligi, shuningdek, geografik nomlar va so'z boyliklarining bebaho hazinalarini biluvchi olim va tadqiqotchilarning kamligi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan onomastik ekspeditsiyalarda toponimik materiallarni yig'ish dolzarbligicha qolmoqda.

Oronimlarning leksik-semantik tahlili, muayyan hudud odamlarining hayoti, iqtisodiy-madaniy faoliyatining turi va xususiyatlari, ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, xalqning eng qadimgi e'tiqodlaridagi o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan ijtimoiy va geografik sharoitlarni yaratishga hamda hududdagi oronimlarning leksik-semantik guruhlarini o'rganish, nomlashning turli sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil qilingan materiallar hozirgi onomastik muammolarni hal qilishda, shuningdek, oronimlarning nisbatan tarixiy o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Toponimik ma'lumotlarga ilmiy yondashuv o'rta asrlarda Sharq allomalari asarlarida atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy (X-XI asr), Mahmud Koshg'ariy (XI asr) toponimlarning etimologiyasini ilmiy talqin qilish bilan ham shug'ullangan hamda o'z asarlarida Osiyo gidronimlari haqida bir qator qiziqarli tushuntirishlar va qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Biroq, o'rta asr manbalaridan topilgan ayrim toponimlarning ta'rifi spekulativ asoslarga ega bo'lib, toponimlarni o'rganish uchun aniq metodologiya mavjud bo'lmagan.

Ma'lumki, oronimlar juda ko'p geografik nomlarni o'z ichiga oladi. Dunyoda taxminan yarim milliarddan ortiq geografik nom mavjud. Shu vaqtgacha ma'lum bo'lgan geografik nomlar biz uchun uzoq vaqtdan beri tanish bo'lib kelgan. Biroq ba'zi mahalliy aholi o'zi yashayotgan joy nomining kelib chiqishi haqida hozirgacha aniq ma'lumotga ega emas. Bu nomlarning kelib chiqishi esa tasodifiy bo'lmagan.

Mahalliy oronimlarni akademik L.S.Berg "Hunarmand xalq ilmi" deb nomlagan. Shuningdek olim "Doimiy mahalliy aholining ko'p asrlik kuzatuvlari va bunday ajoyib jamoaning ijodkorligi samarasi bo'lib, xalq so'zlari filologlar va, ayniqsa, geograflar tomonidan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga loyiqdir", deya ta'kidlaydi¹².

Akademik Ya.K.Grotning fikricha: "Topografik nom hech qachon tasodifiy va ma'nolardan xoli bo'lmaydi. Asosan, yo'l, joy, ob'ektning aql va tasavvur uchun o'ziga xos xususiyatlariga qiziqishni ifodalaydi" deya ta'kidlaydi¹³.

Mashhur filolog A.Superanskaya geografik nomlarni quyidagicha baholaydi "Geografik nomlar, ehtimol, ibtidoiy uylarning qoldiqlari, tangalar, suyaklar va idishlar kabi bir xil moddiy madaniyatdir. Agar siz ularni diqqat bilan ko'rib chiqsangiz hamda yig'ib, o'rganib chiqsangiz, juda qimmatli tarixiy ma'lumotlarni olishingiz mumkin"¹⁴.

"Inson doimo geografik nomlar bilan yuzlanadi. Ushbu geografik nomlar uning butun hayotiga hamroh bo'ladi. Inson o'z hayotida geografik nomlarni tadqiq etadi. Zamonaviy jamiyat hayotini geografik nomlarsiz tasavvur qilish mumkin emas", deb yozadi toponimika sohasidagi taniqli mutaxassis E.Murzaev. - Ular hamma joyda va har doim erta bolalikdan bizni fikrlashga undaydi. Yerdagi hamma narsa o'z manziliga ega va bu manzil insonning tug'ilgan joyidan boshlanadi. Mahalliy qishloq, yashaydigan ko'cha, shahar – mamlakat - barchasi o'z nomlariga ega"¹⁵.

Inson uzoq vaqtdan beri geografik nomlarning kelib chiqishi, birinchi navbatda uning hududi, ularning mazmuni va ahamiyati bilan qiziqib keladi.

Oronimik toponimlar relyefning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Relyefning o'ziga xos xususiyati tog' tizmalari, massivlari va tepaliklarining mashhur nomlari bilan bog'liq.

¹² Берг Л.С. О русской географической терминологии. Землеведение. – М.: 1915. – с. 99.

¹³ Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – с. 32.

¹⁴ Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – с. 14.

¹⁵ Мурзаев Э. М. География в названиях. – М.: Наука, 1982. – 177 с.

Oronim – yer yuzasining, ya'ni har qanday orografik ob'ektning nomi: tog'lar, tizmalar, vodiylar, tepaliklar, jarliklar nomlaridir.

Oronimilarning til tarkibi murakkabdir. Chunki tog'li hududlarda tarixiy sharoitlar tufayli turli xalqlarning vakillari joylashib, doimiy bo'lmada, lekin har bir etnik guruh tog'landshaftiga o'z nuqtai nazari bilan yondashgan va o'z tillarida ob'ektlarni nomlagan.

Mahalliy aholi tillarida tabiiy ravishda paydo bo'lgan oronimlar va ulkan tog' tizmalari uchun sun'iy ravishda ixtiro qilingan "kitobiy" nomlar o'rtasidagi farq ham muhimdir. Tog'li hududning mahalliy aholisi alohida tog'larni va ularning qismlarini ajratib turadigan ko'plab nomlarga ega bo'lishi mumkin, ammo butun tog' tizmasi uchun umumiy nom bo'lmasi mumkin.

E.M.Pospelovning fikricha, "Odamlar uchun adabiyotda va xaritalarda ishlatiladigan nomlar odatda butun ob'ektga uning elementlaridan birining nomini yoki butunlay yangi nom berish orqali tarqaladi. Birinchi usul, ko'pincha, alohida tog'lar, ikkinchisi tog' tizmalari uchun ishlatiladi. Shunday qilib, mahalliy aholi asosan adabiyotlar orqali Tyan-Shan, Pomir nomlarini o'rgandi"¹⁶.

Oronimlarni o'rganish uchun eng avvalo o'zining yashash-joyi, ko'chasi, ularning yaqinida joylashgan mikrotoponimlardan o'rganishni boshlashi kerak.

Bu birinchi bosqichda geografik nomlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga olgan tadqiqot harakatlarini talab qiladi.

Oronimiya muhim madaniy-tarixiy ma'lumotlarga ega tarix, etnografiya va tilshunoslikda qo'llanuvchi manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu tabiiy haqiqatlarni, ushbu hududning rivojlanish xususiyatlarini, odamlarning dunyoqarashi aks ettiradi. Barcha oronimlar umumiy xususiyatga ega – ular ma'lum darajada inson jamiyati hayotining ijtimoiy, iqtisodiy va geografik jihatlarini aks ettiradi.

Oronimlarni o'rganishda etimologik, formant va derivativ tahlil usullaridan foydalanish an'anaga kirgan.

Toponimika fanida etimologik usul eng qadimiy metodlardan biri sifatida muhim rol o'ynaydi, geografik atama yoki nomning asl ma'nosini tiklashga yordam beradi. Biroq, sof lingvistik qarashlardan kelib chiqqan holda, leksik faktning etimologiyasini odatiy tahlil qilish toponimlar paydo bo'lishining asl sabablarini to'g'ri tushunishga imkon bermaydi. Buning uchun o'rganilayotgan mintaqaning hudulariga nisbatan farq qilishi mumkin bo'lgan geografik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-tarixiy omillar va sharoitlarni hisobga olish zarur.

Oronimlar ham toponimlar kabi tahlil qilishda nomlashlarning ommaviy takrorlanuvchi elementlarini o'rganishga asoslangan derivativ usulning lingvistik vositalari bilan amalga oshiriladi. Odatda formantlar deb ataladigan bunday unsurlar ko'pincha kelishik qo'shimchalari mavjud bo'lgan nomlarning yakuniy unsurlari hisoblanadi.

¹⁶ Пospelов Е.М. Топонимика и картография. – М.: Мысль, 1971. – 256 с.

V.A.Nikonov, R.Z.Shakurov kabi olimlar – “Toponimlar yer yuzasi relyefining istalgan elementi, ya’ni har qanday orografik ob’ekt (manfiy yoki musbat bo’lishidan qat’iy nazar) nomlarini oronimlar” deb e’tirof etganlar¹⁷.

A.Gumboldt o’zining "Markaziy Osiyo" asarida shunday deb yozgan edi: "Tog' tizmalari va yirik daryolarning eng qadimgi nomlari deyarli hamma joyda faqat “tog'” yoki “suv” edi". Buning sababi, qadim zamonlarda ibtidoiy odamga ma'lum bo'lgan makon cheklangan va ob'ektga nisbatan nom berishga ehtiyoj yo'q edi. Shuning uchun, odamlar daryoni daryo deb, tog'ni esa tog' deb atadilar¹⁸.

Oronim – toponimning bir turi. Yer yuzasidagi har qanday ob'ektining musbat (tog', tog' tizmasi, tepalik) va manfiy (vodiy, chuqur, jarlik) nomi bor. Oronimlarni nomlashda bir qator belgilar sabab bo'lishi mumkin. Asosan, bu ob'ektning o'lchami, shakli, rangi, o'simliklarning mavjudligi, ya'ni oronimik toponimlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Belgilangan ob'ektlarning tabiatiga ko'ra, oronimlar tashqi belgilari asosida uch guruhga bo'linadi:

- "ortiqcha" belgiga ega bo'lgan narsalarni, ya'ni tekis darajadan yuqoriga ko'tarilgan oronimlar;

- "nol" belgisida joylashgan ob'ektlarni, ya'ni tekislikda joylashgan oronimlar;

- "salbiy" belgiga ega bo'lgan narsalarni, ya'ni tekislik darajasiga nisbatan turli pasayishlar holatini bildiruvchi oronimlar.

Geografik nomlarni o'rganish, tushunish va talqin qilish uchun muayyan usullar mavjud bo'lib, ular so'z va nomlarning lingvistik-fonetik tahlillari; tarixiy usul, ya'ni ismning muayyan tarixiy voqealar, odamlar, xalqlar bilan aloqasi; geografik ob'ektning o'rganish, tahlil va xulosalar qilish, xaritalar bilan ishlashni o'z ichiga olgan geografik usul hisoblanadi.

Oronimlarni tahlil qilish natijasida So'x vohasi relyef shakllarining nomlari etimologik jihatdan dastlab kelib o'rnashgan odamlar nomi bilan bog'liq bo'lib, toponimlarda joyning tabiati, tabiiy omillar, aholining ayrim xususiyatlari, turar-joy tarixi aks ettirilgan.

Hududiy jihatdan So'x vohasi relyef shakllarining nomlari bilan bir xil emas. Oronimlarning eng yuqori zichligi mintaqaning shimoliy-g'arbida joylashgan geomorfologik rayonlashtirishda, oronimlarning eng yuqori zichlikka ega bo'lgan Lazar tog'iga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qoraev S. Geografik nomlar ma'nosi. Toshkent, 1978
2. Ономастика Узбекистана. Ташкент, 1987-1989
3. Берг Л.С. О русской географической терминологии. Землеведение. – М.: 1915. – с. 99.

¹⁷ Никонов В. А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – с.36.

¹⁸ Гумбольдт А. Центральная Азия. – М.: Мысль, 1959. – с.84.

4. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – с. 32.
5. Мурзаев Э. М. География в названиях. – М.: Наука, 1982. – 177 с.
4. Abbozov, O. Q. (2021). General properties of oronyms. *ISJ Theoretical & Applied Science*, (12), 389-391.
5. Ibragimova, E. I., Zokirov, M. T., Qurbonova, S. M., & Abbozov, O. Q. (2018). Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy internetkonferensiya materiallari: Ilmiy ishlar to'plami. *Farg'ona*, 113.
6. Mahamadzoda, A. P. (2022, December). SAIF FARGHANI UND DIE SITUATION SEINES LEBENS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 33-35).
7. Maxamadzoda, A. P. (2022). Life and Works of Saifiddin Muhammad Fargani. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 127-132.
8. Mamajonov, A. (1989). Linguistics of text. *T.: Fan*.
9. Mamajonov, A., & Abdupattoyev, M. (2002). Text syntax. *Fergana*. pp. 42, 43.
11. MAMAJONOV, A., & SAMINOV, A. (2019). Oxymoron as one of the modes of forming unfamiliar phrases in speech. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 88-90.
12. Kuldashev, N., Parviz, A., & Avazbek, D. (2022). Fazli Namangani's "Majmuai Shoiron" Review Zullisonayn Issue. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 429-433.
13. Maftuna, G. (2022). Methodology of organizing problem lessons in higher education. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 72-77.
14. Shukurov, R., & Juraboyeva, G. (2019). The analyses of the toponyms of valley in the work "The History of Iskhaqon Ibrat". *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(1), 87-91.
15. O'rinboyeva, E. (2020, December). Expression of contradiction in proverbs. In *Конференции*.